

Gulzira Obloqulova Jasur qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Telefon:+998940755508

gulziraobloqulova@gmail.com

Yuldasheva F.F.

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: Ushbu maqola asrlar osha nutqiy madaniyatini shakllantirgan omil sheva haqida va adabiy tilning muhimligi haqida yozilgan. Bundan tashqari, viloyatlarning shevalari haqida ham misollar keltirilgan.

Аннотация: Статья написана о диалекте, факторе, формировавшем культуру речи на протяжении веков, и о значении литературного языка.

Annotation: The article is written about the dialect, the factor that has shaped the speech culture over the centuries, and about the importance of the literary language.

Kalit so'zlar: Sheva, vodiy shevasi, shevalar o'xshashligi, mutasaddi xodimlar, mahalliy va hozirgi o'zbek adabiy til, "Charxpalak" seriali.

Ключевые слова: Диалект, долинный говор, сходство диалектов, чиновники, местный, современный узбекский литературный язык, серия «Чархпалак».

Key words: Dialect, valley dialect, similarities of dialects, officials, local, current Uzbek literary language, "Charkhpalak" series.

O'zbekiston hududida bir nechta viloyatlar mujassamdir. O'zbek xalqi uchun rasmiy darajadagi davlat tili maqomiga ega tilidan tashqari viloyatlarning o'ziga xos asriy an'alarini davom ettirib kelayotgan, madaniy merosga aylangan shevalari bor. Shevalar nafaqat xalqning, aholining ma'lum bir hudud doirasidagi chegaralangan so'zlashuv uslubi, shuningdek, kishilarning asrlar osha nutqiy madaniyatini shakllantirgan omil hisoblanadi. Binobarin, hozirgi o'zbek tili adabiy til va mahalliy xalq shevalari hisobiga boyib boradi. Fikrimning isboti sifatida Nuriddin domla Xoliqnazarovning fikrlarini keltirib o'tmoqchiman "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylikdir". [1, b. 4]

Adabiyotlarda ilmiy jihatdan xalq shevalariga "Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli mahalliy shevalar hisoblanadi. Shevaning faqat og'zaki shakli mavjud", deya ta'rif beriladi. [2, b. 70] Shevalarda yangicha so'zlarning kirib kelishi bo'lmasa-da ular adabiy til mazmunining boyishiga xizmat qiladi. Har bir hudud doirasidagi sheva bir-biridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham o'zbek tilida so'zlashuvchilarning nutqida hududiy tafovutlar ko'zga tashlanadi. Hozirda O'zDJTU talabasiman, guruhda 16ta

talabamiz. Har bir talabaning o'ziga xos shevasi, muayyan tili bor. Masalan, Toshkent shevasida ketvomman (ketyapman), etvorin (aytib yuboring), bohor (bahor), oka (aka), ada (dada), kelovuza (kelyapmiz), opa (ona), do'da (bobo) kabi so'zlar muntazam qo'llaniladi. Ushbu sheva vodiy shevasiga yaqin deya ta'kidlansa-da, ularning so'zlashuv uslubidagi ayrim so'zlar bir-biridan keskin farq qiladi. Ahamiyatlisi, Andijon, Farg'ona va Namangan hududlaridagi aholi o'rtasida ham shevada umuman boshqa-boshqa so'zdan foydalanish holatlari mavjud. Buni Toshkent shahri va Toshkent viloyati aholisi misolida ham uchratamiz. Samarqand, Buxoro shevalarida esa so'zlar ko'proq cho'zish ohangida talaffuz qilinadi, ketopman (ketyapman), nana (ona), chakka (qatiq), bibi (buvi), aytopti (aytyapti) kabi. O'zbek tilida shunday bir sheva borki, unda so'zlovchilarning talaffuzini tushunish anchayin mushkul, ammo so'z ohangi haqiqatanda kishini sehrlaydi. Xorazm shevasining mayin va ohangga boy tovush tembri shubhasiz, har bir insonni o'ziga rom etadi, garchand tushunish qiyinligiga qaramasdan. Galing (keling), opo (ona), apka (opa), uchak (tom), taka (yostiq), gashir (sabzi) kabi aynan Xorazm shevasiga xos so'zlarning ma'nosini bilmasdan turib haqiqatanda talaffuz qilish mushkul. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari shevalari esa biz yuqorida tilga olgan shevalardan tubdan farq qiladi. Mazkur hududlar lahjalari biroz dag'al va qo'polroq ohangga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, jo'l (yo'l), ul (o'g'il bola), tov (tog'), ena (ona), chig'ing (chiqing), bachcha (bola), buva (bobo) singari so'zlar fikrimizning tasdig'idir.

Yana bir ahamiyatli jihati, shevalarni bir-biriga o'xshashligi, ular o'rtasidagi tafovutlar haqida fikr yurita turib, bir narsani sezdim. Buni qarangki, shevalar har bir hudud aholisining xarakteri va ichki dunyosini ifodalay ekan. Masalan, Toshkent va vodiy aholisi o'z shevasiga monand muloyim, vazmin xarakterga ega. Xorazm shevasidan bu yerlik aholining xarakteridagi ko'tarinkilikni va biroz yuqori kayfiyatni sezamiz. Samarqand, Buxoro viloyatlarining shevasi esa shu yerlik aholining cho'rtkesarlik xarakterini ifodalagandek go'yo. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholisining shevasidan voaha ahlining biroz sodda va dalli-g'ulli ekanliklarini payqash qiyin emas. Aslida bu ham faqat o'zbeklarga xos til va xarakter uyg'unligidir.

Ammo, ba'zan televizorda yoki bo'lmasa ko'chadagi qandaydir e'lon taxtalarida shevaga xos so'zlardan foydalanilganiga amin bo'lasiz. Mutasaddi xodimlarimizning ko'zlari qayerda bilmadim-u, omma oldida havola etilayotgan har qanday taqdimot hamma uchun umumiy bo'lgan -adabiy tilda bo'lishi shart deb o'ylayman. Yaqinda bir xabarga ko'zim tushdi. Taniqli yozuvchi, madaniyat arbobi Sharof Boshbekov adabiy til, uning kinoda ishlatilishi va shevalar bo'yicha kinoijodkorlari, telekanallarga murojaat qilibdilar. "Men ijodiy hayotimda bir martagina "O'zbektelefilm" suratga olingan "Charxpalak" serialidagi lo'li Maryam obrazini yozishda "san", "man" ni ishlatganman. Aks holda, u lo'li bo'lmasdi. Kuzatishlarimga qaraganda, kino ijodkorlari, namoyish etishga ruxsat beradigan mutasaddilar, badiiy kengash a'zolarining deyarli

barchasi “lo‘li” ekan! Ular orasida bironta o‘zbek bo‘lganida “Ey, o‘rtoqlar, adabiy o‘zbek tilida bunda olmosh yo‘q-ku! “Sen”, “men” degan olmoshlar bor!” degan bo‘lardi.

G‘afur G‘ulom kundalik turmushda “san”, “man” deb so‘zlashgan, ammo yozishga kelganda “Sen yetim emassan”, “Men – yahudiyman!” deb yozganlar. So‘zning hurmati tor mahalliychilik manfaatidan ustun turgan. “San”, “man” so‘zlashuv jarayonda og‘ir botmaydi, lekin sahnadan, ekrandan eshitilsa quloqni qirib o‘tib ketadi”.

Darhaqiqat, asrlar osha nutqiy madaniyatini shakllantirgan omil-sheva va hammamiz uchun tushunarli ,umumiy bo‘lgan adabiy tildan foydalanishning o‘z o‘rni muhim ahamiyatga ega ekan .Shunday ekan ,adabiy tilni ham shevani o‘z o‘rnida qo‘llab nutqimizni go‘zallashtiraylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Xoliqnazarov N.Ko‘r-ko‘rona taqlid // J. “Yangi O‘zbekiston”,2022, 217-son.-T.,2022.-4-b.
- 2.Hamroyeva O.Ona tili ma‘ruzalar to‘plami.-Toshkent.: “Akademnashr”, 2018.-70-b.

INTERNET RESURLAR:

1. <https://xabar.uz/lq00>